

JADIDLARNING TA'LIMGA QO'SHGAN HISSASI**Ma'rufov Sherzod Komil o'g'li***Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)**GulDU "Tarix" kafedrasi o'qituvchisi,**sherzodmarufov1@gmail.com***Esonbekova Sarvinoz Anvar qizi***Guliston Davlat Universiteti 2-bosqich talabasi**Sarvinozesonbekova516@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilar harakatining ta'limga qo'shgan hissassi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan harakat bo'lib, uning maqsadi xalqning savodxonligini oshirish, vatanparvarlik ruhini uyg'otish va ta'lim tizimini yuqori darajaga ko'tarishdan iborat edi. Maqolada jadidchilarning yangi usul maktablarini ochish faoliyati, bu maktablar uchun o'quv dasturlar ishlab chiqilishi, darsliklarga tabiiy va ijtimoiy fanlarning qo'shilishi va ayollar ta'limi organilgan. Abdulla Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy kabi ziyolilar misolida bu harakat yoritilgan. Jadidchilik harakati O'rta Osiyoda milliy ta'lim tizimining shakllanishida muhim bosqich bo'ldi.

Kalit sozlar: jadidchilik harakati, usuli jadid, ma'rifat, ta'lim islohoti, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, Ismoil G'aspirali.

Annotation: This article scientifically analyzes the contribution of the Jadid movement to the development of education. The Jadid movement emerged in the late 19th and early 20th centuries, aiming to increase public literacy, awaken a sense of patriotism, and elevate the educational system to a higher level. The article examines the activities of Jadid intellectuals in establishing new-method schools (Usuli Jadid), developing curricula for these schools, introducing natural and social sciences into textbooks, and promoting women's education. The movement is illustrated through the examples of prominent intellectuals such as Abdulla Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, and Abduqodir Shakuriy. The Jadid movement became an important stage in the formation of the national education system in Central Asia.

Keywords: Jadid movement, Usuli Jadid, enlightenment, educational reform, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy, Ismail Gasprinsky.

Kirish. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududida yuzaga kelgan harakat bo'lib madaniy siyosiy hayotda balkim talim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirishga intilganlar. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta

Osiyoning bosib olinishidan song, ular imperiya manfaatlaridan kelib chiqib mahalliy aholini savodsizlik va qoloqlikda tutib turadigan ishlarni amalga oshirdi. Xalq Rossiyaga qarshi ochiqdan ochiq urush olib borolmas edi. Shuning uchun ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l bu xalqni ma'rifatli qilish deb bildi. Ular " ta'limisiz - millat kelajagi yoq" shiori ostida harakat qilishgan. Jadidlar yangi usul maktablarini tashkil etish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish, xalq savodxonligini oshirishni o'zlarining asosiy vazifalaridan biri qilib olishdi. Ushbu maqolada jadidlarning talim tizimiga qo'shgan hissasi va faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda marifatparvarlik harakati vujudga keldi. Taraqqiyparvarlarning jamiyatni yangilash va isloh qilishga qaratilgan harakati jadidchilik nomi bilan maydonga chiqdi.

Ziyolilar o'z xalqlarini ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlarni boshladi. Jadid so'zi arabchada -"yangi" degan ma'noni anglatadi. Jadidlar Rossiya mustamlakasi bo'lgan xalqlarni eng avvalo maorif tizimini yaxshilash, ta'lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilim bilan birga dunyoviy fanlarni ham o'qitishni zarur deb bildilar. Ular maktab va madrasalarda diniy ta'lim, arab, fors, rus tili, tibbiyot kimyo kabi fanlarning o'qitilishi zarurligi g'oyasini ilgari surib chiqdilar. Jadidchilar rivojlangan jamiyatni yaratishda mutaasiblik, qoloqlik va loqaydlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat berdilar. Ular yangi usul maktablarini kengaytirish, qobilyatli yoshlarni chet elga yuborish, turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish kabi g'oyalarni oz oldilariga maqsad qilib olishadi. Jadidchilik harakati Tataristonda vujudga kelib keyinchalik Buxoro, Xiva va Turkistonda ham tarqaladi. Abduqodir Shakuriy o'zining " Shakuriy maktabi"ga asos soladi. Shakuriy birinchi bo'lib o'g'il va qiz bolalar uchun birdek ta'limni joriy qildi. Uning maktabida tojik va o'zbeklar birga o'qigan. Bu yerda tojik tili asosiy til hisoblangan. Shakuriy maktabida Quroni Karim o'qitilar edi. Chunki hech bir ota ona Quron o'qitilmaydigan maktabga farzadini oqitishga bermas edi. Shakuriy faqat oqituvchigina bolib qolmay, o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'i hisobiga nashr qildirgan. U o'zining "Rahmoni savod" alifbosini nastaliq xati bilan yozgan. Shakuriyning shogirdi aytishicha bu kitobni so'zlari bog'inlarga ajratilib korsatilgan. Shakuriy tomonidan yozilgan ikkinchi kitob "Jome ul Xikoya" bolib 1907-yilda nashr qilinadi. Shakuriy birinchilardan bo'lib Samarqandda qizlar uchun alohida maktab ochdi. Unga xotini Mujsara muallimlik qildi. Keyinchalik og'il bollalar bilan birlashtirilib dars o'tildi. U o'z maktabiga rus tilini alohida o'quv predmeti sifatida dars jadvaliga kiritdi va fandan Saidahmad Siddiqiy dars berdi . Abduqodir Shakuriy 1943-yilda Stalin qatag'oning qurboni bo'ldi. Uning yaratgan darsliklari va o'qitish usullari ma'orifning ,ta'limning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

Jadidchilik harakati qatnashchilaridan yana biri Abdulla Avloniy edi. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yohud milliy

she'rlar hamda "Birinci muallim", "Turkiy guliston yohud axloq ", "Ikkinchi muallim", "Maktab Gulistoni " kabi darsliklari muhim hisoblanadi. Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning dolzarb masalasi bolgan ta'lim va tarbiyaga doir bo'lgan fikrlarning dalillar, hokoyalar she'riy lavhalar misolida yoritib berilganligi bilan ko'zga tashlanib turadi. Uning "Birinci muallim" asarida 1917-chi yilga qadar 4 marta nashr etiladi. "Ikkinchi muallim " asarning bevosita davomi bo'lib Alifbodan so'ng o'qitish uchun yozilgan va u axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar bilan ziynatlangan. "Turkiy guliston yohud axloq " asarida ta'limni millatning asosiy tayanchi deb biladi. Kitob maktabning yuqori sinflariga darslik sifatida yozilgan. Bu asar 1913-yilda bosilib chiqdi. U shunday deydi: "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot masalasidir". Abdulla Avloniyning ijodida tarbiya va umuminsoniylik mezonlari diqqat markazida bo'lar edi.

Jadidchilardan biri bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonov O'rta Osiyi "Milliy istiqlol "harakatining yo'l boshchisi, jadidlar otasi hisoblanadi. U yangi usul maktabi asoschisi, hozirgi milliy matbuot, jurnalistika, teatr va oliy o'quv yurtlarining yuzaga kelishi va rivijlanishiga ulkan hissa qo'shgan tarixiy shaxsdir.

Tarixshunis va adabiyotshunis Begali Qosimovning keltirishicha " Munavvarqori Abdurashidxonov nomini 30-yillarda Turkiyadagi Mustafo Rashid Posho, Ozorbayjondagi Mirzo Fathali Oxunzoda , Qrimdagi Ismoil Gaspirali nomlari qatoriga qoygandilar" . Hozirda dunyo mamlakatlarining aksariyatida amalda bolgan uch bosqichli ta'lim tizimining milliy shakliga Munavvarqori Abdurashidxonov asos soldi . Munavvarqori Abdurashidxonov maorif sohasida olib borgan izlanishlar natijasida o'qitishni uzluksiz, tizimli va bosqichma bosqich tashkil etish, darsliklarni yoshga nisbatan mo'ljallash, chet tillarini o'rgatish, imtihonlarni baholash tizimini yo'lga qo'yish, ta'lim berishning ko'rgazmali metodlaridan foydalanish kabi muhim masalalarga yechim topdi

Uning "Yer yuzi", " Adibi Soniy" "Adibi avval", va "Muallimi Soniy" kabi asarlari maorif tizimini shakllantirishdagi o'rni alohida hisoblanadi.

Ma'rifat uchun birgina maktabni o'zi yetarli emas edi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq xalqning hayotidan ogoh bolmoq kerak edi. Shunday ehtiyoj va zarurat Behbudiyini siyosiy maydonga olib chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm - ma'rifatli qilishga bag'ishladi. 1904- 1909-yillarda u o'zbek va tojik tillarida " Risolayi asbob savod" " Kitobat ul aftol" "Muxtasar tarixi islom" "Madxali jug'rofiyayi umroniy " kabi darsliklarni yaratdi. Savod alifbodan boshlanadi. Shuning uchun ham jadid pedagoglari " usuli savtiya " metodida faoliyat ko'rsatayotgan maktablar uchun alifbo darsliklari yaratishga birinchi darajali masala sifatida qaradilar. Behbudiy Turkiston o'lkasida burinchi bo'lib alifbo darsligini yaratd va uni " Risolayi asbobi savod "deb nomladi. "Kitobat ul aftol " ham eng asosiy darsliklardan biri edi.

Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonovlar, Behbudiy va boshqa jadidchilar ham o'sha davrdagi dolzarb muammolardan biri ayollar ta'limi muammosiga ham katta etibor beradi. Ular "millatni uyg'otish uchun avvalo onalarni o'qitish lozim" degan g'oyani ilgari suradilar. Jadidlar faoliyati natijasida O'rta Osiyoda yangicha fikrlovchi ziyolilar kopaydi. Ularning say harakati tufayli talim tizimi isloh qilindi, matbuot va adabiyot rivojlandi

Bugungi kundagi ta'lim tizimining shakllanishida jadidchilik g'oyalarning tasiri katta bo'ldi.

Xulosa.

Jadidchilik harakati O'rta Osiyo xalqlari tarixida milliy o'zlikni anglash va ma'naviy uyg'otish davri bo'ldi. Ular ta'lim sohasida tub islohotlar amalga o'tkazib, zamonaviy fanlar, yangi metodlar va milliy qadryatlarga asoslangan maktab tizimi yaratdilar. Jadidchilarning g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning merosi O'zbekistonning zamonaviy ta'lim siyosati va ma'naviy rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq".
2. Rasulov "O'rta Osiyo jadidchilik harakati" asari.
3. Zayniddinova Nilufar "Abduqodir Shakuriyning ta'limni rivojlantirishda tutgan o'rni".
4. Rahimov N (2015) jadid maktablari va ularning dasturlari. Samarqand Samdu nashryoti.
5. Olim Olтинbekov, Bahodir Karimov "Abdulla Avloniy" Toshkent 2022.
6. Zaynobiddin Abdurashidov "Jadidlar" Behbudiy. Toshkent 2022.
7. Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O 'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 343-349).
8. Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O 'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 343-349).
9. Komil o'g, M. R. S., Hoshimjon o'g'li, R. I., Mamatkarimovna, A. Z., & Vildanovich, G. S. (2025, May). GERMANIYA IMPERIYASI 1870–1918 YILLARDAGI KOLONIAL REJALARIDA MARKAZIY OSIYONING O 'RNI. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 3, No. 31, pp. 277-280).

10. Komil o'g, M. R. S., & Eshmurza o'g'li, Q. S. (2025). HISTORY OF COIN MILLING IN UZBEKISTAN: PERIODIC RESEARCH AND HISTORICAL-CULTURAL SIGNIFICANCE. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 6(51), 620-623.

11. Komil o'g, M. R. S., & G'ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 8(4), 172-181.

12. Komil o'g, M. R. S., & G'ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 8(4), 172-181.

13. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA'RUF OV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 160-165.

14. MA'RUF OV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O 'RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. ACTA NUUz, 1(1.2), 1.

15. Ma'rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O'RTA OSIYODA MUSIQA SAN'ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).

16. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 4(11).

17. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 6(01), 4-7.

18. Сулаймонович, Қ. С. (2024). СИРДАРЁ ТАРИХИ ЯНГИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИДА. PEDAGOG, 7(11), 68-72.

19. Sherzod, M. R. (2024). NEW VIEWS ON ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS LOCATED IN SIRDARYA REGION. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 4(2), 1-6.

20. Ma'rufov, S., & Bekmurodov, S. (2024). XONLIKLAR DAVRIDA MUSIQA ILMIGA ILMIGA QARATILGAN E'TIBOR. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).

21. Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In International Conference on Modern Science and Scientific Studies (pp. 293-296).

22. Gulchehra, A., Alisher, A., & Sherzod, M. R. (2025). G'ARBIY TURK XOQONLIGI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 477-487.

23. Sherzod, M. R., Gulchehra, A., & Alisher, A. (2025). ARXELOGIYA FANINING YO'NALISHLARI. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 467-476.

24. Alisher, A., Gulchehra, A., & Sherzod, M. R. (2025). SUV OSTI ARXELOGIYASI TADQIQOTINING ISTIQBOLLARI. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 456-466.